


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1-may holatiga ko'ra
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026- yil 1-may holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 24,7 mingtani tashkil etadi, shundan 20,6 mingtasi yoki 83,1 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 113,0 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yil	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2026	24 745	20 693	20 567
2025	22 231	18 279	18 194
2024	25 029	21 221	21 133
2023	23 458	19 773	19 683
2022	24 308	20 622	20 524

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida – 27,2 foiz, To'rtko'l tumanida – 9,9 foiz, Beruniy tumani – 8,8 foiz, Amudaryo tumani – 7,9 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,8 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Nukus shahrida – 27,8 foiz, To'rtko'l tumanida – 10,5 foiz, Beruniy tumani – 9,0 foiz, Amudaryo tumani – 8,0 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,8 foizga to'g'ri keldi.

Tumanlar kesimida korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Tumanlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	24 745	20 693	20 567
Amudaryo tumani	1959	1681	1647
Beruniy tumani	2177	1983	1857
Bo'zatov tumani	403	398	318
Qorao'zak tumani	606	584	457
Kegeyli tumani	802	795	642
Qo'ng'iro't tumani	1419	1279	1153
Qonliqo'l tumani	707	586	576
Mo'ynoq tumani	720	684	602
Nukus tumani	996	953	836
Taxiatosh tumani	725	618	587
Taxtakopir tumani	403	362	277
To'rtko'l tumani	2444	1955	2129
Xo'jayli tumani	1217	1125	1002
Chimboy tumani	1092	1061	867
Shumanay tumani	639	566	506
Ellikqal'a tumani	1694	1404	1403
Nukus shahri	6742	5 738	5 708

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1-may holatiga 36,3 foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,7 foiz, uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 13,2 foiz. Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 775	2 716	2712
Sanoat	2 849	2 845	2814
Qurilish	1 655	1 630	1612
Savdo	7 473	7 472	7456
Tashish va saqlash	862	857	848
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 541	1 536	1535
Axborot va aloqa	524	490	487
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	727	479	477
Boshqa turlar	6 339	2 668	2626

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-may holatiga ko'ra, 20,7 mingta faol tijorat korxonalaridan 17,1 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	17 081	82,5
Xususiy korxonalar	1 572	7,6
Oilaviy korxonalar	1 695	8,2
Aksiyadorlik jamiyati	19	0,1
Boshqalar	326	1,6

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shni munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 237 ta korxonalaridan 81 qo'shma korxonalar va 156 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026- yilning 1-may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan yo'nalishlar bu sanoat sohasidagi korxonalar soni 105 ta, savdo sohasida 45 ta va qurilish sohasida 24 tani tashkil etdilar.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	237	81	156
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19	9	10
Sanoat	105	42	63
Qurilish	24	5	19
Savdo	45	10	35
Tashish va saqlash	2	1	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	3	2
Axborot va aloqa	13	2	11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3		3
Boshqa turlar	21	9	12

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 102 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi.

Bu respublikadagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 43,0 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib eng ko'p hissasini qo'shgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi 13,9 foizni, Turkiya 7,2 foizni, Qozog'iston 7,2 foizni va Janubiy Koreya 4,6 foizni tashkil etadi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	237	81	156
Xitoy	102	27	75
Rossiya	33	20	13
Turkiya	17	2	15
Qozog'iston	17	5	12
Afg'oniston	2	2	0
Janubiy Koreya	11	3	8
Turkmaniston	4	2	2
BAA	8	2	6
AQSH	4	2	2
Qirg'iziston	3	1	2
Boshqa davlatlar	36	15	21

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)
[Glossariy](#)
[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)
[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
B. Daribaev
61 222-78-52 (9560)

Maznil:
230103, Nukus sh.,
A. Dosnazarov ko'chasi, 97 a-UY
